



SAMARQAND VILOYATIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Choriyeva Nargiza Ibotovna

O'zbekiston davlat jahon tillari Tarix fanlari
universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
choriyevanargiza257@gmail.com
+998931708807

Polvanov Azim Kuchkarovich

polvanovazim70@gmail.com

Toshkent Arxitektura -Qurilish Universiteti "O'zbek va xorijiy tillar"
kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17462601>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda, xususan, Samarqand viloyatida ekoturizm sohasining rivojlanish holati, infratuzilmaning ahamiyati hamda turizmning iqtisodiy va huquqiy asoslari tahlil qilingan. Jahon tajribasi va mamlakatda qabul qilingan huquqiy hujjatlar asosida ekoturizmni yanada samarali rivojlantirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari ekoturizmning iqtisodiyotga integratsiyalashuvi, ekologik madaniyatni shakllantirish va barqaror turizmni rivojlantirishdagi o'rni muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, infratuzilma, barqaror rivojlanish, Samarqand viloyati, turizm siyosati.

Аннотация: В статье рассмотрено развитие экотуризма в Узбекистане, в частности в Самаркандской области. Проанализированы значение инфраструктуры, правовые основы и экономическая роль туризма в устойчивом развитии региона. На основе международного опыта и национальных нормативно-правовых актов показаны пути дальнейшего совершенствования экотуризма. Результаты исследования подтверждают важность экотуризма для интеграции в экономику и формирования экологической культуры населения.

Ключевые слова: экотуризм, инфраструктура, устойчивое развитие, Самаркандская область, туристическая политика.

Abstract: This article analyzes the development of ecotourism in Uzbekistan, particularly in the Samarkand region. The study highlights the importance of infrastructure, the legal framework, and the economic significance of tourism for sustainable regional development. Based on international experience and national regulations, the paper outlines strategies for enhancing ecotourism efficiency. The findings emphasize the vital role of ecotourism in integrating into the national economy and promoting environmental awareness among the population.

Keywords: ecotourism, infrastructure, sustainable development, Samarkand region, tourism policy.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasida turizm tarmog'ining barcha yo'nalishlarini, xususan, ekoturizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda turizm sohasi respublika iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida mamlakatning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, Samarqand viloyatining boy tabiiy resurslari, tarixiy obidalari, rivojlangan infratuzilmasi va qulay geografik joylashuvi ekoturizmni yanada kengaytirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bois, mamlakat rahbariyati tomonidan ekoturizmni rivojlantirishga doir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda, bu esa O'zbekistonda barqaror turizm siyosatini amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ichki turizmni rivojlanishi natijasida O'zbekiston fuqarolari ekoturistik obyektlarga tashrifi orqali ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi ona yurtga nisbatan milliy iftihar hamda g'urur tuyg'usini shakllanadi. Ekoturizmni rivojlantirishda O'zbekistonda mavjud bo'lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o'rin tutadi. Ayni paytda mamlakat hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor berilishi hududlarlar turizmni barcha yo'nalishlarini rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Samarqand viloyati ulkan sayyohlik salohiyati mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Bu o'lkaning betakror tarixiy obidalari, so'lim tabiati, ayni paytda bag'rikeng va mehmondo'st xalqi, shirin-shakar, sarxil mevalari, eng muhimi, qulay infratuzilma tarmoqlari keyingi yillarda viloyatning turistik salohiyatini yanada rivojlantirish maqsadida yaqin besh yilda viloyatda 179 dan ziyod yangi mehmonxona qurish va 12 ta mehmonxonani kengaytirish mo'ljallanmoqda.[1, B.178]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ekoturizmning barqaror rivojlanish talablariga mos tarzda kechib boradi. Ekologik turizm va uning huquqiy jihatida turizm sohasi rivoji uchun eng muhim huquqiy masalalar sirasiga kiradi. Ekologik turizmda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolar borasida A. Demkina, A. Shelygov, S. Rebina, A. Maksimenkolar ilmiy izlanishlar olib borib, huquqiy va moddiy jihatning ahamiyatini ko'rsatib o'tishgan. Ekologik turizmda huquqiy yondashuv hamda hujjatlarni to'g'ri yurgizish borasida Nimatullayev, Kozlov va Zvyaginstsevalar maqolalarida o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Bacon, Do va boshqalar ekoturizmning ta'lim olish, ish o'rinlarining yaratilishi va rekreatsiya masalalarida ahamiyatining beqiyosligini ta'kidlasa, Nino, Saenz-de-Miera va Russelo kabi olimlar bu kabi foydali jihatlari tabiiy resurslar dan foydalanish oqibatida atrof-muhit bilan bog'liq turli salbiy oqibatlar yuzaga kelishidan xavotir olib, tabiiy resurslardan foydalanishning huquqiy jihatiga katta e'tibor berish zarurligini ta'kidlashgan. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra ekoturizm ayniqsa barqaror turizmni ommaviylashtirish maqsadida so'nggi 15-20 yillikda turli huquqiy mexanizmlar ishlab chiqildi va bu hol ekologik turizmning rivojlanib borishiga zamin yaratmoqda. Honey o'z islanishlarida turizmning bu yo'nalishini sertifikatlashtirish va akkreditatsiyadan o'tkazish tomonlariga e'tibor qaratib, ushbu jarayon harakatlarning qanchalik huquqiy tomonlama amal qilinayotganligini kuzatish imkonini berishini ta'kidlagan. Keltirib o'tilgan tadqiqotlarga suyanan holda e'tirof etish mumkinki, ekologik turizm faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi har jihatdan uning huquqiy hamda moddiy bazasi bilan uzviy bog'liq. Va bu borada bizning yurtimizda maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy va metodologik ahamiyat kasb etadi.[2, B.8]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 dekabrda "Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni "Samarqand — yangi Oz'bekistonning turizm darvozasi»konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-455 sonli qarori tasdiqlandi. Ushbu qarorda Samarqand viloyatiga xorijiy va mahalliy turistlar oqimini ko'paytirish, yangi turizm infratuzilmasi obyektlari salohiyatidan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish,

shuningdek, yangidan modernizatsiya qilingan Samarqand xalqaro aeroportida xorijiy aviatashuvchi kompaniyalar uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, hududning transportlogistika tizimini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash va diversifikatsiya qilish masalalariga alohida urg'u qaratilgan. [3, B.448]

Samarqand viloyati ulkan sayyohlik salohiyatiga ega bo'lib, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi.

Rivojlangan infratuzilma har qanday hududda ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega va ekologik turizmni rivojlantirish infratuzilmani rivojlantirishga imkon beradi, aholining turmush darajasini yaxshilaydi va atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga oshirishga yordam beradi. [3, B.158]

O'zbekistonga turistik yoki xususiy yo'nalish bo'yicha tashrif buyuruvchi shaxslarni kamida 10% o'z sayyohatlarining ekologik jihatlari bilan qiziqadi: ular yoki tabiiy hududlar (bog'lar, tog'lar, o'rmonlar, ko'llar) ga tashrif buyurishadi, yo bo'lmasa, yaqinroq qishloq joylarga bir kunlik ekskursiya qilishadi. Ularning kamida 60 % aralash turga ehtiyoj sezishadi, xususan, etnografiya bilan ekologiyaga qiziqishadi. [4, B.29]

Natijalar:

- Samarqand viloyati ekoturizm sohasida ulkan imkoniyatlarga ega;
- infratuzilmaning rivojlanishi ekoturizmni yanada ommalashtiradi;
- davlatimiz tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar sohaning barqaror rivojlanishiga asos yaratmoqda;
- turistlarning ekologik sayohatlarga bo'lgan qiziqishi ekoturizm bozorini kengaytirish imkonini bermoqda;

Xulosa:

Samarqand viloyatida ekoturizmning rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Infratuzilmaning takomillashuvi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari va aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali bu sohaning barqaror o'sishiga erishish mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish nafaqat hudud iqtisodiyotiga, balki ekologik muhitni muhofaza qilishga ham katta hissa qo'shadi. Shu sababli, ekoturizmni rivojlantirish O'zbekistonning turizm siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo'minov A. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari. VIII INTERNATIONAL FORUM OF GUIDES "TOURIST AND EXCURSION ACTIVITIES: NEW CHALLENGES AND WAYS OF DEVELOPMENT", FEBRUARY 21-22, 2025, B.178
2. Toirova Sh. O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZMNING MODDIY VA HUQUQIY BAZASINI SHAKLLANTIRISH. ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2023, 4 (164), B.8
3. Muhitdinov X.S, Shukurov I.A. Samarqand viloyati mintaqasi turizm salohiyatini rivojlantirishda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili. "Экономика и социум" №5(120)-2 2024 www.iupr.ru, -B.448
4. Egamberdieva L.Sh. Ekoturizm. O'quv qo'llanma. Toshkent, -2021, B.158
5. HAMIDOV O.H., NORCHAEV A.N. EKOTURIZM. Darslik, Toshkent, -2011, B.29

6. Muhitdinov X.S, Shukurov I.A. Samarqand viloyati mintaqasi turizm salohiyatini rivojlantirishda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili. "Экономика и социум" №5(120)-2 2024 www.iupr.ru,

